

MADANIYAT VA SAN'AT XODIMLARINI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev Shohbek Muzaffarjon o'g'li – *prorektor*
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining
Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlari bo'yicha

Tayanch so'zlar: madaniyat xodimlari, san'at sohasi, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, qayta tayyorlash, professional rivojlanish, xalqaro tajriba, malaka oshirish kurslari.

Ключевые слова: работники культуры, сфера искусства, подготовка кадров, повышение квалификации, переподготовка, профессиональное развитие, международный опыт, курсы повышения квалификации.

Key words: cultural workers, art sector, personnel training, professional development, retraining, professional growth, international experience, advanced training courses.

Ma'lumki, har qanday jamiyatda va har doim mamlakat va millat taraqqiyotida madaniyat kabi o'ta murakkab, ayni paytda muhim fenomen hodisa alohida ahamiyatga ega. Bugun ma'rifatli jamiyatni qurish, barkamol avlodni tarbiyalash, amalga oshirilayotgan tub islohotlarning ma'no-mazmunini fuqarolar ongiga singdirishda mazkur hodisaning o'zni benihoya katta. [1:3] Bu esa o'z navbatida, shunday muhim va nozik sohada faoliyat yurituvchi madaniyat va san'at xodimlariga bog'liqdir.

Madaniyat va san'at – jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining bemisl kashfiyotidir. Ijod va mahoratning, tinimsiz izlanishning eng oliy darajasida yaratilgan asarlarga inson ko'nglini ishg'ol qila oladi, yuragiga yetib boradi. Iqtidorli insonlar o'zgalar ko'z o'ngida hayratlar yaratadi, ertangi kuniga ishonch, mazmun ato etadi. Ko'nglingizga chiroq yoqib yuboradigan so'zlar, navolar, dramatik sahna, ekran asarlari, amaliy, hunarmandchilik asarlari ishingizga unum, kuningizga fayz baxsh etadi. Beqiyos ilhom va ijod sohiblarining besh yil davo mida davlatimiz va hukumatimiz boshchiligida o'zbek madaniyati va san'atini dunyo minbarlariga, jahon sahnalariga olib chiqqan fayzli tadbirlari haqida mulohaza yuritdik. Ushbu sharaflı kasb egalari tarixda birinchi marta shu yilning 15 aprelida Madaniyat va san'at xodimlari kuni – kasb bayramini nishonlaydi. Xalqning har bir bayramiga, fayziyob tadbirlariga xizmat qilgan ziyoli insonlarning bayrami ham shu kuhli va esda qolarli o'tishi tayin. Ijod – bu hayrat demak. Vatanni sevmoqni, uni asramoqni, inson qadrini ulug'lamoqni hayrat lanarli asarlarida ifoda etayotgan ijodkorlar xalqning mulki, xalqning boyligidir. Chin yurak mehri bilan yaratilgan asarlar esa to'ppa-to'g'ri yurakka yetib boradi. Zotan, noyob iqtidor egalari ko'p narsa kerak emas, jamiyat e'tirofi va ozzgina mehru e'tibor kerak, zarragina e'tibor o'lmas asarlar yaratishga,

xalqning ertangi umidlarini ro'yobga chiqarishga ba g'ishlangan zarsahifalar bitishga xizmat qiladi. [2:6] Sababi, ular jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, yangi avlodni estetik ruhda tarbiyalashda beqiyos rol o'ynaydilar. Shunday ekan, bu soha vakillarini tayyorlash, ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini doimiy yangilab borish, zamon talablari asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalasi strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu boradagi yondashuvlar chuqur ilmiy asosga ega bo'lishi shart. Hozirgi vaqtda malaka oshirish kurslari va professional qayta tayyorlash mutaxassislarining o'z raqobatbardoshligini oshirishda keng tarqalgan usullar bo'lib, ular bilim olishning boshqa shakllariga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. Ushbu ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab xodimlarning o'zi bilan birga ish beruvchilaridan ham shakllanadi. Ko'pincha malaka oshirish kurslari va professional qayta tayyorlash jarayonlari rahbarlarni xodimning ijtimoiy-madaniy sohadagi dolzarb masalalar bo'yicha kompetentligi va xabardorligini oshirish, muayyan ko'nikma va sifatlarni rivojlantirishga qaratiladi. [3:76] Shu nuqtai nazarda madaniyat va san'at sohasidagi xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi alohida e'tiborga loyiq masalaga aylanadi.

Bu soha vakillari nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga, balki badiiy tafakkurga, milliy madaniyatimiz va san'atimizni asrab-avaylash va targ'ib qilish salohiyatiga ega bo'lishi kerak. Shunday ekan, ularning malaka oshirishi yoki qayta tayyorlanishi oddiy kasbiy yangilanish emas, doimiy ijodiy o'sish, zamonaviy san'at jarayonlariga moslashuv, milliy va jahon madaniyati o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur anglash vositasi sifatida qaralishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida madaniyat va san'at sohasidagi tashkilotlar va muassasalarning

raqobatbardoshligiga xodimlarning raqobatbardoshligi hamda ularning intellektual salohiyati katta ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda intellektual salohiyatning raqobatbardoshlikni oshirishdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki madaniyat bozorida innovatsiyalar bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan intellektual xodimlarni shakllantirishni talab etadi. Ana shunday xodimlar tashkilot va hatto butun tarmoqning raqobatbardoshligini ta'minlay oladi. Madaniyatning iqtisodiy tizimlarning rivojlanishiga ta'siri tub, fundamental xarakterga ega. Aynan madaniy omillar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida maqsadlarni tushunish, ularni amalga oshirish usullari va metodlarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Tarbiya, ta'lim, shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi kabi muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarish orqali madaniyat va san'at sohasi jamiyatning barcha institutlariga hamda mintaqaviy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatimizdagi o'zgarishlar va taraqqiyot jarayoni uzluksiz kechmoqda, bu jarayonni to'liq belgilab beradigan yagona katalizatorni topish esa imkonsiz. Faqat madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi umumiy integratsion jarayonlarga jamiyatning kompleks rivojlanishini ta'minlashi mumkin. [4:37] Bugungi kunda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va global madaniy jarayonlarning jadal rivojlanishi sharoitida madaniyat xodimlarining malakasi doimiy yangilanib borilishi zarur. Shu bois, madaniyat va san'at xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish mamlakatning madaniy salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, sohaning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Chunki raqamli tafakkurga ega, ijodiy fikrlaydigan va zamonaviy madaniy muhitda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimi bilan birga butun madaniyat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Biroq madaniyat va san'at sohasi vakillarining malakasini oshirish imkoniyatlari hali ham yetarlicha tizimlashtirilmagan. Qator hollarda bu jarayon rasmiy talablardan holi, tashabbus va ichki motivatsiyaga bog'liq bo'lib qolmoqda. Mutaxassislar uchun maxsus modullar asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, mavjud kurslar esa ko'pincha umumiy nazariy ma'lumotlar bilan chegaralanib, amaliy va ijodiy rivojlanishni ta'minlamaydi. [5:201] Bu esa sohaga zamonaviy qarashlar bilan yondashadigan, innovatsion fikrlovchi, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadigan madaniyat va

san'at xodimlarini yetishtirishda jiddiy to'siqlarga olib keladi.

Yuqoridagi muammolarni inobatga olgan holda, madaniyat va san'at xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish zarur. Bu yo'lda yagona strategik yondashuv, normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, sohaga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari va madaniyat markazlari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, individual o'quv yo'nalishlarini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, madaniyat va san'atning kelajagi bevosita shu sohaga xizmat qilayotgan insonlarning malakasi, intellekti va ularni kengroq fikrlashiga bog'liqdir.

Ayniqsa, yangi avlod madaniyat va san'at xodimlari zamonaviy texnologiyalar, multimedia vositalari, innovatsion metodlar bilan bir qatorda chuqur nazariy bilim, tarixiy-estetik tafakkur va milliy madaniyatni chuqur his etish fazilatlariga ega bo'lishi lozim. Zero, XXI asrda san'at sohasi mutaxassislari oldiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib, ularning kasbiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirishni taqozo etmoqda [6:66]. Endilikda bu sohada faoliyat yurituvchi kadrlar nafaqat o'z kasbining ustasi, balki keng dunyoqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini anglay oladigan, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlayoladigan, ijodiy fikrlashga qodir shaxs sifatida shakllanishi lozim.

Shu sababli, madaniyat va san'at sohasi kadrlari tayyorlash tizimi an'anaviy ma'nodagi kasbiy bilim va ko'nikmalarni berish bilan cheklanmasligi kerak. Ta'lim jarayonlari yosh mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, estetik tafakkuri, badiiy didi va madaniy saviyasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bu esa san'atshunoslik, estetika, madaniyatshunoslik kabi nazariy fanlarning chuqur o'qitilishi bilan birga, tarixiy-madaniy merosga, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odat va qadriyatlarga bo'lgan hurmatni singdirishni ham nazarda tutadi. [7:33]

Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarni tayyorlash jarayoni uzoq muddatli va ancha xarajatli hisoblanadi. Ko'pincha ushbu soha mutaxassislari jamoaviy o'qitish sharoitida tayyorlanadi. Shu bilan birga, afsuski, ko'plab oliy ta'lim muassasalari hanuzgacha asosan akademik va nazariy yo'nalishga qaratilgan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa amaliy ko'nikmalarga ega, ijodiy fikrlaydigan, madaniyat va san'at sohasining real ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash jarayonini murakkablashtirmoqda. Chunki, zamonaviy

ta'limda san'at xodimlarini tayyorlashda integratsiyalashgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, bilim, ko'nikma va qadriyatlar uyg'unligini ta'minlovchi o'quv tizimi yaratish orqali madaniyat sohasi xodimlari texnik yoki ijodiy jihat bilan birga shaxsiy va ijtimoiy jihatdan ham yuksak darajaga erishishi mumkin. Ular o'z faoliyatida milliy madaniyatning genofondini asrab-avaylab, uni zamonaviy shakllarda targ'ib etishga, yoshlar ongiga estetik va badiiy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladilar.

Shuningdek, global axborot maydonida milliy san'at va madaniyatni munosib himoya qilish, uni xalqaro miqyosda tanitish uchun mutaxassislarning raqamli savodxonligi, media va kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko'nikmalari ham yuqori bo'lishi kerak. Ular virtual maydonlarda madaniy-ma'naviy targ'ibot olib borish, raqamli arxivlar, san'at loyihalari, interaktiv platformalar orqali madaniyatni keng ommaga yetkazishda faol ishtirok etishlari lozim.

Shu nuqtai nazardan, madaniyat va san'at sohasi kadrlari tayyorlash tizimiga kompleks yondashuv zarur, albatta. Bunda kasbiy bilim bilan bir qatorda, tarbiyaviy, estetik, innovatsion va kommunikativ jihatlar uyg'unligi ta'minlanishi lozim. Ushbu uyg'unlik asosida o'z faoliyatini olib borayotgan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzurida tashkil etilgan Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazini olaylik. Institut huzurida tashkil etilgan Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi 278-sonli qaroriga asosan faoliyat yuritadi. [8:1]

Mazkur markazning huquqiy maqomi, tashkiliy asoslari va faoliyat mezonlari 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son qaror bilan tasdiqlangan namunaviy nizom doirasida belgilab berilgan. [9:1] Bugungi kunda Tarmoq markazi madaniyat va san'at ta'limi tizimining uzviy bo'g'ini sifatida zamonaviy ehtiyojlar va xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashib bormoqda. Markazning asosiy faoliyat yo'nalishi san'at va madaniyat sohasi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari hamda pedagogika institutlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik va metodik yondashuvlar bilan ta'minlashdan iborat. Bu boradagi metodik-axborot ta'minoti Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan yo'lga qo'yilgan bo'lib, markaz faoliyat vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan yillik reja asosida olib boriladi. Markaz tomonidan oliy ta'lim muassasalari uchun jami 12 ta yo'nalish bo'yicha

malaka oshirish kurslari ishlab chiqilgan va ularni turli shakllarda – ya'ni muqobil, kunduzgi va masofaviy formatlarda tashkil etish yo'lga qo'yilgan. Bu esa tinglovchilarga o'zlarining ish faoliyatidan ajralmagan holda, kasbiy kompetensiyalarini oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, madaniyat va san'at muassasalari xodimlari uchun qisqa muddatli kurslar shartnoma asosida tashkil etilib, amaliyotga yo'naltirilgan, sohaviy xususiyatlarga mos metodika asosida olib boriladi. Markazda mehnat qilayotgan xodimlar shtat jadvali asosida faoliyat olib borib, hozirda jami 8 nafar mutaxassis ushbu jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Markaz infratuzilmasi hozirda 4 ta xonadan iborat bo'lib, ulardan 2 tasi boshqaruv, 2 tasi o'quv mashg'ulotlari uchun ajratilgan. Mazkur moddiy-texnik baza tinglovchilarning zamonaviy o'quv muhitida tahsil olishlari, amaliy mashg'ulotlar va interaktiv darslar o'tkazilishiga xizmat qilmoqda. [10:1]

Umuman olganda, Tarmoq markazining faoliyati nafaqat mavjud kadrlarning bilim va ko'nikmalarini yangilash, balki ularning madaniyat va san'at sohasidagi global o'zgarishlarga mos ravishda professional salohiyatini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, milliy va estetik qadriyatlarga asoslangan pedagogik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Malaka oshirish Tarmoq markazida o'tgan o'quv yilida amalga oshirilgan ishlar mazkur muassasaning ta'lim sifati va pedagogik salohiyatini oshirish borasidagi samarali faoliyatining yorqin ifodasidir.

O'quv yilida malaka oshirish kurslariga jami 165 nafar oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari qabul qilindi. Ushbu tinglovchilarning ta'lim olish shakllari turli formatlarda tashkil etilib, shundan 33 nafari to'g'ridan to'g'ri, 60 nafari masofaviy, 72 nafari esa muqobil shaklda tahsil oldi. Natijada, umumiy tinglovchilar orasida 141 nafar kursni muvaffaqiyatli tamomlagan bo'lsa, 24 nafar ishtirokchi kursni yakunlashga muvaffaq bo'lmadi. Ta'kidlash lozimki, malaka oshirish jarayonida yuqori sifatli o'quv-mashg'ulotlar tashkil etilishi uchun jami 9 nafar tajribali professor-o'qituvchilar hamda sohaning yetuk mutaxassislari faol jalb qilindi. Ularning ilmiy salohiyati yuqori bo'lib, tarkibida 1 nafar fan doktori (11%), 2 nafar professor (22%) va 6 nafar dotsent (67%) mavjud bo'lib, bu ilmiy darajalarning jami 100 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, pedagoglarning 22 foizi – ya'ni 2 nafar xorijda malaka oshirgan mutaxassislar bo'lib, bu markazning xalqaro ilmiy

hamkorliklarni rivojlantirishdagi salohiyatini ko'rsatadi.

Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan malaka oshirish kurslari hamkorlik doirasini kengaytirishga ham xizmat qilmoqda. Joriy o'quv yilida markaz 6 ta madaniyat va san'at yo'nalishidagi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik qilib, shuningdek, xorijiy davlatlarning madaniyat va san'at sohasida faoliyat yurituvchi muassasalari bilan ham aloqalarni mustahkamladi. Ushbu xorijiy hamkorlar orasida Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon, Janubiy Koreya va Qozog'iston davlatlari joylashgan bo'lib, bu hamkorliklarning yutug'i sifatida alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari, markaz 10 ta turli tashkilot va muassasa hamda 6 ta davlat teatr bilan ham hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. [11:1]

Pedagogik salohiyatni yanada oshirish maqsadida madaniyat va san'at muassasalarining 634 nafar rahbar-xodimlari uchun 25 ta qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Ushbu kurslar ayniqsa quyidagi yo'nalishlarda olib borildi: musiqa va san'at maktablari rahbar-xodimlari, madaniyat markazlari rahbarlari hamda madaniyat boshqarmalari rahbar-xodimlari. Bu esa markazning nafaqat professor-o'qituvchilarni, balki madaniyat va san'at tizimidagi rahbar kadrlarni ham malaka oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi [12:1]. Natijada, malaka oshirish Tarmoq markazi o'z faoliyati davomida nafaqat ta'lim sifati va pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish, balki madaniyat va san'at sohasida ilg'or pedagogik tajriba va innovatsiyalarni keng joriy qilish imkonini yaratib bermoqda. Bu esa O'zbekiston madaniy ta'lim tizimining rivojlanishida, sifatlil kadrlar tayyorlashda hamda madaniyat va san'at sohasida professional salohiyatni yuqori darajaga olib chiqishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham, madaniyat va san'at xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin: Birinchidan, madaniyat va san'at xodimlarining malakasini oshirish tizimini raqamlashtirish va modul asosida takomillashtirish lozim. Bu orqali o'quv kurslarini an'anaviy shakldan interaktiv, zamonaviy va moslashuvchan formatga o'tkazish mumkin bo'ladi. Har bir yo'nalish bo'yicha kompetensiyalarga asoslangan o'quv modullari ishlab chiqilishi zarur.

Ikkinchidan, amaliyotga yo'naltirilgan, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi treninglar tashkil etilishi

kerak. Xodimlar uchun ijodiy laboratoriyalar, ustoz-shogird maktablari, interaktiv seminarlar orqali nazariy bilimlarni real faoliyatda qo'llash imkoniyatlari kengaytiriladi.

Uchinchidan, xalqaro tajribalarni milliy kontekstda qo'llash maqsadida xorijiy madaniy institutlar bilan hamkorlikda malaka oshirish dasturlarini tashkil etish muhim. Xususan, xorijiy ekspertlarni jalb qilish, onlayn vebinarlar va tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilishi kerak.

To'rtinchidan, kurslarni tashkil etishda hududiy va sohaviy ehtiyojlarni hisobga olgan holda individual rejalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Har bir hududning madaniy salohiyati, infratuzilmasi va kadrlar holati chuqur tahlil qilinishi kerak.

Beshinchidan, malaka oshirish tizimida tahlil, monitoring va baholash mexanizmlari joriy etilishi lozim. Tinglovchilarning ish faoliyatidagi o'zgarishlar, sifat ko'rsatkichlari asosida tizim samaradorligi doimiy o'lchanib borilishi kerak.

Oltinchidan, malaka oshirish tizimida ishtirok etgan xodimlar uchun motivatsion va ijtimoiy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish zarur. Bu jarayonga ustama to'lovlar, sertifikat asosida martaba o'sishi, ijtimoiy imtiyozlar kabi omillarni kiritish mumkin. Yettinchidan, markazlar faoliyatini takomillashtirish uchun ilmiy-metodik ta'minotni kuchaytirish, zamonaviy o'quv qo'llanmalari, raqamli platformalar va elektron kutubxona resurslarini kengaytirish zarur.

Sakkizinchidan, tayyorlov va qayta tayyorlash jarayonlarida xalq san'ati, milliy madaniy meros va zamonaviy ijodiy texnologiyalar uyg'unligini ta'minlash muhim. Bu orqali madaniyat xodimlari milliy qadriyatlarni asrab-avaylab, zamon bilan hamnafas bo'lishi mumkin. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar, ilg'or tajribalarni tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali biz madaniyat va san'at sohasining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga erishishimiz mumkin. Bunda ayniqsa qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan boyitilgan, hamkorlik yondashuvini ilgari suruvchi modeli muhim o'rin tutadi. Zero, bugunning madaniyat xodimi faqatgina ijrochi emas, balki o'zi yashayotgan davrning nozik ruhiy-ijtimoiy muammolarini ilg'ay oladigan, ularni san'at vositasi orqali ifodalab, jamiyat ongiga yetkaza oladigan yetuk mutaxassis bo'lishi kerak.

Kasbiy standartlar asosida qo'shimcha kasbiy dasturlarni ishlab chiqish, qo'shimcha kasbiy ta'limni mehnat bozori talablariga

mutaxassislarning kasbiy-malaka tayyorgarligi darajalari va mazmuniga, shuningdek, mehnat

funksiyalarini bajarish bo'yicha qo'yiladigan talablariga moslashtirish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavrulov A, Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi: o'quv qo'llanma // – Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022. – 360 b.
2. To'ychieva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidadagi zarsahifalar // Gaz. Yangi O'zbekiston, 2022.
3. Ткаченко Л. А. Институт дополнительного профессионального образования в образовательном пространстве университета культуры и искусств // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. – 2011. – №. 14. – С. 77-84.
4. Рязанцева И. В. Развитие системы дополнительного профессионального образования в сфере культуры и искусства // КЭ. 2020. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-sistemy-dopolnitelnogo-professionalnogo-obrazovaniya-v-sfere-kultury-i-iskusstva> (дата обращения: 10.10.2025).
5. Throsby D. Artists as workers // Cultural economics. – Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg, 1992. – С. 201-208.
6. Эргашева С.А. Роль менеджеров в создании культурно-художественной среды. “Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami// – Toshkent.: “Donishmand ziyosi” nashriyoti, 2025. 65-66 bet.
7. Alimasov V., Samiyev. B. Madaniyat va san'at sohasida kadrlar va mutaxassislar migratsiyasi // Journal of universal science research. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 31-35.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabr 278-sonli “Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-2057279>.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabr 797-sonli “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4526545?ONDATE=24.09.2019%2000>.
10. <https://t.me/Malakaoshirishtarmoqmarkazi/3654>.
11. <https://t.me/Malakaoshirishtarmoqmarkazi/3655>.
- <https://t.me/Malakaoshirishtarmoqmarkazi/3656>

REZYUME. Mazkur maqolada O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, sohada mavjud o'quv dasturlari, malaka oshirish markazlari faoliyati, kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullari o'rganilgan. Ayniqsa, madaniyat va san'at muassasalari uchun zamonaviy kompetensiyalarga ega, ijodiy fikrlaydigan va raqamli muhitda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlash zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, tizimni takomillashtirish yo'nalishlari sifatida innovatsion o'qitish texnologiyalarini joriy etish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv jarayonini kuchaytirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются вопросы совершенствования системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации работников, занятых в сфере культуры и искусства Узбекистана. Рассмотрены существующие учебные программы, деятельность центров повышения квалификации и современные методы подготовки кадров. Особое внимание уделено необходимости подготовки специалистов, обладающих современными компетенциями, творческим мышлением и способных эффективно работать в цифровой среде. В статье предложены направления совершенствования системы, включая внедрение инновационных образовательных технологий, усиление практико-ориентированного обучения и расширение международного сотрудничества.

SUMMARY. This article analyzes the issues of improving the system of training, retraining, and professional development of employees working in the field of culture and art in Uzbekistan. It examines existing educational programs, the activities of professional development centers, and modern methods of personnel training. Particular attention is paid to the need to train specialists who possess modern competencies, creative thinking, and the ability to work effectively in a digital environment. The article proposes several directions for improving the system, including the introduction of innovative educational technologies, strengthening practice-oriented learning, and expanding international cooperation.